

**TALABA YOSHLARNI OILAVIY HAYOTGA TAYYORLASHNING
NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI****Narzullayeva Aziza Isroil qizi****Norqulova Feruza Abdukarimovna**

Termiz davlat pedagogika instituti talabalari

Annotatsiya. Ushbu maqolada yangi taraqqiyot davrida talaba yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash tushunchasi keng yoritilib berildi Abdurauf Fitratning “Oila” asari asosida talaba yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash masalasi tahlil etiladi. Asarda ko‘tarilgan muhim ijtimoiy masalalar bugungi talaba yoshlar uchun dolzarb tarbiyaviy yo‘nalishlar sifatida ko‘rsatib beriladi.

Kalit so‘zlar: Oila qadriyatlari, talaba yoshlar, Abdurauf Fitrat “Oila” asari, oilaviy hayot, Ma’naviy tarbiya, ayol huquqlari, majburiy nikoh, pedagogik yondashuv.

Abstract. This article provides a comprehensive overview of the concept of preparing university students for family life in the new stage of development. Based on Abdurauf Fitrat’s work “Family”, the issue of preparing young people for family life is analyzed. The important social issues raised in the work are presented as relevant educational directions for today’s students.

Keywords: Family values, students, Abdurauf Fitrat's work "Family", family life, Spiritual education, women's rights, forced marriage, pedagogical approach.

Аннотация. В данной статье широко освещается понятие подготовки студентов к семейной жизни в условиях нового этапа развития. На основе произведения Абдурауфа Фитрата «Семья» анализируется вопрос подготовки молодежи к семейной жизни. Важные социальные вопросы, поднятые в произведении, представлены как актуальные воспитательные направления для современной студенческой молодежи.

Ключевые слова: Семейные ценности, студенты, произведение Абдурауфа Фитрата «Семья», семейная жизнь, духовное воспитание, права женщин, принудительный брак, педагогический подход.

Bugungi globallashuv va tez o‘zgarayotgan dunyo sharoitida talaba yoshlarning oilaviy hayotga tayyorlanishi dolzarb masalalardan biri sanaladi. Oila - jamiyatning tayanch hujayrasi bo‘lib, uni mustahkamlashda har bir insonning, ayniqsa, bo‘lajak oila quruvchilarning ongli va mas’uliyatli yondashuvi muhimdir. Oila - bu nikoh va qon - qarindoshlik yoki birga istiqomat qilish orqali bir - biriga bog‘langan insonlardan



Learning and Sustainable Innovation

iborat ijtimoiy guruh, bolalar sotsializatsiyasi uchun asosiy institut vazifasini bajaruvchi, jamiyatning mo'jaz bir qo'rg'onlaridan biridir. Uning mustahkamligini asrash mana necha asrlar oshsa ham o'z ahamiyatlilik darajasini yo'qotmay kelayotgan masalalardandir. Vaholanki, bu sohada yurtimizda olib borilayotgan islohotlar bir talaydir. Oila masalasiga e'tibor davlat siyosati darajasiga ko'tarilishi bejiz emas, chunki porloq ertamizning tamal toshlari oilada qo'yiladi. Shuningdek "O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksi" da alohida qoidalar asosida belgilab qo'yilgan. Oilaviy munosabatlarni tartibga solish erkak va ayolning ixtiyoriy ravishda nikohlanib tuzgan ittifoqi, er va xotinning shaxsiy hamda mulkiy huquqlari tengligi, ichki oilaviy masalalarning o'zaro kelishuv yo'li bilan hal qilinishi, oilada bolalar tarbiyasi, ularning farovon hayot kechirishi va kamoloti haqida g'amxo'rlik qilish, voyaga yetmagan va mehnatga layoqatsiz oila a'zolarining huquq va manfaatlarini himoya qilish ustuvorligi tamoyillari asosida amalga oshiriladi. Darhaqiqat, oila nafaqat talaba yoshlarning kamoloti, balki jamiyatning ma'naviy taraqqiyotida ham tayanch ustun vazifasini bajaradi. Shu sababli bugungi kunda talaba yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash va ular ongiga oila muqaddasligini singdirish davlat siyosatining ham, fuqorolik jamiyatining ham muhim vazifasiga aylanib bormoqda [10].

Respublikamizda yangi taqqiyot davrida oila institutiga davlat miqyosida alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu borada qabul qilingan farmon, qaror va qonunlar oilani qo'llab quvvatlash va bugungi yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashga qaratilgan. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 1-martdagi "Oila va xotin-qizlar bilan ishlash, mahalla va nuroniylarni qo'llab quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi farmonida yosh oilalarni qo'llab quvvatlashga katta ahamiyat berilgan. Shuningdek, "Oila kodeksi" (1998-yil) oilaviy munosabatlarni huquqiy jihatdan tartibga soladi va oilaning jamiyatdagi o'rnini belgilaydi. Ushbu qonunlar oilaning barqarorligi va jamiyat farovonligining muhim asosi sifatida ko'radi. Ya'ni nikoh tuzish va bekor qilish tartibi, er va xotin huquqlari, majburiyatlari, ota-onalarning farzandlarga va farzandlarning ota-onalarga nisbatan majburiyatlari huquqiy jihatdan tartibga solinadi [9].

Rasululloh sollallohu alayhi va sallam aytdilar: "Agar banda oila qursa, bas, dinining yarmini to'ldiribdi. Qolgan yarmini to'ldirish uchun Allohga taqvo qilsin". Bayhaqiy rivoyat qilgan. Hadis-Muhammad payg'ambar aytgan gaplari, qilgan ishlari, iqrorlari to'g'risidagi rivoyat. Islom dinida Qur'ondan keyingi 2-manba hisoblanadi. Hadislar insonlarni tarbiya va axloqqa chaqiruvchi gaplardir. Darhaqiqat, yoshlar yangi oila qursalar dinimizdagi yarim amallarni bajargan hisoblanadi. Oila qurish – islomdagi muhim jihatlardan biri: Nikoh qurish musulmon kishining iymoni, odobi va



ijtimoiy mas'uliyatining muhim qismidir. Kishi oila qurish orqali, zinodan saqlanadi, nafsini poklaydi, farzand ko'rib, ummatni davom ettiradi, mehr-oqibat, sabr, rahm-shafqat, javobgarlik kabi xislatlarni o'rganadi. "Dining yarmini to'ldirish" degani: Oila qurish orqali musulmon inson o'zining diniy majburiyatlarining katta qismini ado etgan bo'ladi. Chunki, Oila — insonni gunohlardan asraydi, haromdan yiroqlashtiradi, sabr va mas'uliyat kabi xislatlarni tarbiyalaydi. "Qolgan yarmini Allohdan qo'rqsin" degani: Oila qurish bilan ish bitdi deb o'ylamaslik kerak. Endi qolgan diniy majburiyatlarni – ibodatlar, halol-haromni ajratish, adolat, poklik, taqvo va boshqa amallarni bajarishda ham Allohdan qo'rqib, samimiy bo'lish kerak[8].

Oila-jamiyatning asosiy bo'g'ini va inson hayotida muhim o'rin tutadi. Bu borada ma'rifatparvar bobokalonimiz Abdurauf Fitratning 1918-yilda yozilgan "Oila" asari alohida ahamiyatga ega bo'lib, u yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashda nazariy va axloqiy asos bo'lib xizmat qilishi mumkin. Abdurauf Fitrat "Oila" asarida oila tushunchasini ijtimoiy, axloqiy, madaniy va diniy mezonlar asosida tahlil qiladi. U oilani nafaqat shaxsiy hayotning bir qismi, balki jamiyatni barqaror saqlovchi muhim institut sifatida ko'radi. Fitratga ko'ra, sog'lom va baxtli jamiyat – sog'lom oilalardan boshlanadi.

Fitrat oilaning muqaddasligini uning inson hayotining eng asosiy qadriyatlaridan biri deb biladi. Oila qurishga tayyorgarlik: U yoshlarning ma'naviy, axloqiy va moddiy tayyorgarligi zarurligini ta'kidlaydi. Er-xotin o'rtasidagi hurmat va mas'uliyat: Har ikki tomonning o'z vazifalarini tushunib, mehr-oqibat bilan yashashi kerakligi urg'ulanadi. Oila farzand tarbiyasining ilk maktabi ekani, ota-ona mas'uliyatli bo'lishi kerakligi aytiladi[7].

Talaba yoshlar uchun o'rnak jihatlari

Bugungi talaba yoshlar uchun Fitratning "Oila" asaridan quyidagi xulosalar muhim o'rnak bo'la oladi:

1. Mas'uliyat tuyg'usini shakllantirish: Talabalar nafaqat kasb-hunar, balki oila qurish, uni boshqarish kabi hayotiy vazifalarga ham mas'uliyat bilan yondashishga o'rganishlari lozim.

2. Axloqiy yetuklik: Oila faqat sevgi emas, balki sabr, kechirim va fidoyilik talab qiladi. Bu fazilatlar yoshlikdan shakllanishi kerak. Yosh avlodni oilada mehr-muhabbat ruhi bilan tarbiyalash kerak.

3. Abdurauf Fitrat asarida moliyaviy savodhonlik haqida ham to'xtalgan. Moddiy barqarorlik oilaning mustahkamligi uchun zarur shart sifatida ko'rsatiladi. Talabalar buni erta tushunib, o'z hayotlarini rejalashtirishga odatlanishlari kerak.



4. Kommunikatsiya va muomala madaniyati: Er-xotin o'rtasida to'g'ri muloqot oila mustahkamligining asosidir. Talabalar bu ko'nikmalarni o'zlashtirishlari muhim. Chunki yoshlarning bir biriga bo'lgan hurmati oilaning mustahkam bo'lishining asosidir[6].

Ammo, zamonaviy jamiyat sharoitida talaba yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash va oila haqidagi qarashlarini mustahkamlash jarayonida qator muammolar ham mavjud. Jumladan, talaba yoshlarning oilaviy hayotdagi uchraydigan muammolari:

Globalashuvning salbiy ta'siri. Begona madaniyat va g'oyalarning keng tarqalishi talaba yoshlar o'rtasida oila qadriyatlarining zaiflashishiga olib kelmoqda.

Oilaviy ajrimlar ko'payishi va kundan kunga ajrim sonining ortib borishi oilaning mustahkamligiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Ota-onaning doimiy ish bilan bandligi tufayli bolalarning tarbiyasida uzilishlar paydo bo'lmoqda.

Milliy qadriyatlarimizning unitilishi oilaning bo'linishiga sabab bo'lmoqda.

Gender tengligi, xotin-qizlarning huquq va manfaatlarini to'liq taminlanmagani oiladagi muvozanatga putur yetkazmoqda.

Mazkur muammolarni hal etishda bir qator yechimlar mavjud.

Talaba yoshlar ongida oila qadriyatlarini chuqur singdirish orqali ularni begona g'oyalardan himoya qilish.

Nikohdan avvalgi tayyorgarlik tizimini kuchaytirish, psixologik va huquqiy bilimlarni talaba yoshlar ongiga singdirish.

Migratsiya tufayli ota-onasiz qolgan bolalarga ta'lim va tarbiya borasida mahalla va ta'lim muassasalari hamkorligini kuchaytirish.

Gender tengligini ta'minlash bo'yicha qabul qilingan qonunlarning samarali ijrosini ta'minlash.

Shunday qilib, zamonaviy jamiyatda talaba yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash nafaqat davlat siyosatining, balki butun jamiyatning umumiy vazifasi bo'lib, bu jarayon har bir fuqoroning faol ishtirokini talab etadi.

Bugungi kunda yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash masalasi nafaqat ma'naviy, balki ijtimoiy, huquqiy va iqtisodiy jihatdan ham dolzarb ahamiyat kasb etadi. Zero, oila jamiyatning eng kichik, ammo eng muhim bo'g'ini sifatida millatning kelajagini, farzandlarning taqdiri va tarbiyasini belgilab beradi[5].

Xulosa qilib aytganda talaba yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash zamonaviy jamiyatda muhim ijtimoiy va pedagogik vazifa hisoblanadi. Oila — shaxs tarbiyasida asosiy o'rin tutuvchi ijtimoiy institut sifatida yoshlarning ma'naviy-axloqiy, psixologik va amaliy tayyorgarligini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Tadqiqotlar shuni



ko'rsatdiki, talabalarning oilaviy munosabatlarga tayyorligi nafaqat ularning individual psixologik xususiyatlari, balki oliy ta'lim muassasalaridagi metodik yondashuvlarga ham bog'liq. Oilaviy hayotga tayyorlash jarayonida pedagogik, psixologik va sotsiologik yondashuvlarni uyg'unlashtirish zarur. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar, interaktiv mashg'ulotlar va raqamli resurslar ta'lim sifatini oshirishga xizmat qiladi. Shunday qilib, talabalarning oilaviy hayotga tayyorligi ularning barkamol shaxs sifatida shakllanishiga hamda mustahkam oilalar barpo etilishiga asos yaratadi. Oila - jamiyat ko'zgusi. Fitrat aytganidek, har bir inson avvalo o'zini, so'ngra oilasini tarbiyalashi kerak. Talaba yoshlar aynan mana shunday chuqur g'oyalar bilan qurollansa, kelajakda mustahkam, ma'naviyatli, zamonaviy oilalar poydevorini qo'ya oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksi. Toshkent. 1998.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 1-martdagi Farmoni "Oila va xotin-qizlar bilan ishlash, mahalla va nuroniylarni qo'llab quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida".
3. Abdurauf Fitrat. "Oila" asari 1918.
4. Husanov. B. Ma'naviyat asoslari. Toshkent. Ma'naviyat. 2010.
5. Shavkatovna, X. M. (2024). GENDER YONDASHUV ASOSIDA TALABA-QIZLARDA TANQIDIY FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISH. *Research Focus*, 3(11), 124-128.
6. Shavkatovna, X. M., & Qizi, S. R. B. (2024). INKLYUZIV TA'LIM: GLOBAL TAJRIBA VA O'ZBEKISTON MODEL. *Research Focus*, 3(11), 117-123.
7. Xolova M, Amirqulova M. QUALIFIED TEACHER-EFFECTIVE LESSON ORGANIZER. In INTERNATIONAL CONFERENCE ON INTERDISCIPLINARY SCIENCE 2024 (Vol. 1, No. 12, pp. 285-289).
8. Xo'jamurodova, F., & Xolova, M. (2024). OILAVIY MUNOSABATLAR MUAMMOSINING IJTIMOY-PSIXOLOGIK ASOSLARI. In CONFERENCE ON THE ROLE AND IMPORTANCE OF SCIENCE IN THE MODERN WORLD (Vol. 1, No. 11, pp. 63-66).
9. Shavkatovna, X. M. (2023). DEVELOPMENT OF HEALTHY THINKING IN STUDENTS. *Academia Repository*, 4(10), 90-94.
10. Shavkatovna, X. M., & Akbarovna, N. D. (2024). GENDER YONDASHUV ASOSIDA TALABA-QIZLARDA TANQIDIY FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYASI. *O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI*, 3(35), 494-498.